

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi
Tog‘-kon sanoati va geologiya vaziri,
Davlat zaxiralari komissiyasi raisi



B. Islamov B.F. Islamov

2025-yil “*12*” *yanvar*

**O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi
Foydali qazilmalar zaxiralari bo‘yicha davlat komissiyasi majlisining**

1764 -son bayonnomasi

2025-yil “*30*” *oktyabr*

Toshkent sh.

Raislik qiluvchi: Islamov B.F. – O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vaziri – Davlat zaxiralari komissiyasi raisi.

Ishtirokchilar: Davlat zaxiralari komissiyasi (keyingi o‘rinlarda DZK deb ataladi) a‘zolari, DZK ishchi organi xodimlari, ijrochilar, manfaatdor shaxslar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining (keyingi o‘rinlarda Kon-geologiya vazirligi deb ataladi) qattiq foydali qazilmalarda xalqaro talablarga moslashtirilgan geologiya-qidiruv ishlarini olib borishga oid normativ hujjatlarni ko‘rib chiqish to‘g‘risida

(Islamov, Yusupov, Mustafayev, Qobilov, Adilov, Ibragimov, Islamov)

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-dekabrda 02-06/1-657-sonli bayonnomasining 2-bandiga muvofiq, “NKMK” AJ tomonidan Foydali qazilmalar zaxiralari bo‘yicha davlat komissiyasi (DZK) va CRIRSCO qo‘mitasi (JORC kodeksi) talablarini uyg‘unlashtirish bo‘yicha taklif ishlab chiqildi.

DZK talablari batafsil yo‘riqnomalar va uslubiy tavsiyalarga asoslanadi, uning aniq bajarilishi asosiy natijasini kafolatlaydi – zaxiralarni “Foydali qazilmalar zaxiralari davlat balansi”ga qo‘yish.

So‘nggi 30-yil ichida talablarni yangilanmaganligi va muhimligini yo‘qotganligi sababli yo‘riqnomalar va uslubiy tavsiyalarning zaif tomonini ko‘rsatadi. Yo‘riqnomalar va uslubiy tavsiyalarda yangi paydo bo‘lgan usullar hisobga olinmaydi va shunga mos ravishda yangi usullar rasmiy ravishda qo‘llanilmaydi yoki zaxiralarni hisoblashda va rejalashtirishda cheklovlar bilan qo‘llanilishi mumkin. Shu bilan birga, ba‘zi yo‘riqnomalar va tavsiyalar eskirgan bo‘lib va zamonaviy texnologiyalarga javob bermaydi.

Uyg‘unlashtirishning asosiy vazifasi – JORC kodeksi va DZKning talablariga muvofiq baholashni amalga oshirishga imkon beradigan yagona ishonchli asosni tayyorlashdir.

Yagona asos – har ikkala talablarga javob beradigan batafsil va sifat jihatidan dastlabki ma’lumotlarni ta’minlash, dastlabki ma’lumotlarni to’plashda ishlarning takrorlanishini bartaraf etish, keyingi texnik tadqiqotlar uchun yagona resurs modeli shaklida yagona geologik asosni ta’minlash, konchilikning yagona strategiyasini asoslash, zaxiralarni baholashda yagona iqtisodiy ko’rsatkichlarni aniqlash.

Har qanday texnik tadqiqotlarni o’tkazish uchun yagona asosning mavjudligi konni balansga kiritish uchun ham, moliyalashtirish uchun ham zarur bo’lgan natijalar va baholashni imkonini beradi.

Bundan tashqari, yagona geologik asosda amalga oshirilgan texnik tadqiqotlar, shuningdek, ishlarni yuqori sifatli bajarish bilan ikkala kodeksning talablariga ham mos kelishi mumkin.

Ushbu ishlarni amalga oshirish maqsadida, 2022-2024 yillarda soha xodimlari tomonidan 37 ta normativ hujjatlar ishlab chiqildi.

Ishlab chiqilgan normativ-me’yoriy hujjatlarni xalqaro talablarga moslashtirish Kon-geologiya vazirligi “MRI” DMning amaldagi loyihasi doirasida: Kon-geologiya vazirligi, “MRI” DM – foydali qazilmalarni geologik o’rganish, modellashtirish, konchilik, laboratoriya va tahliliy ishlar va iqtisodiyot bo’yicha tegishli mutaxassislarini jalb qilgan holda amalga oshirildi va DZK tomonidan ko’rib chiqish uchun taqdim etilmoqda:

1. Qo’rg’oshin va rux ma’danlari konlari uchun zaxiralar tasnifini qo’llash bo’yicha yo’riqnomasi. Tuzuvchilar: Gleyzer L.M., Raxmonova N.B., Oxunov A.X., Abidova N.A.

Ushbu yo’riqnomasi O’zbekiston Respublikasining 2024-yil 31-oktyabrda tasdiqlangan “Yer qari to’g’risida”gi 987-son Qonuniga va “Qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarining tasnifi”ga (Davgeolqo’m, 2022-yil) muvofiq, Davlat geologiya va mineral resurslar qo’mitasi tomonidan 2005-yilda tasdiqlangan “Qo’rg’oshin va rux ma’danlari konlariga zaxiralar tasnifini qo’llash bo’yicha yo’riqnomasi” o’rniga ishlab chiqilgan.

Yo’riqnomasi qo’rg’oshin va rux ma’danlari konlarini qidirish, ularning zaxiralarini hisoblash va ularni sanoat miqyosida o’zlashtirishga tayyorlash darajasiga qo’yiladigan asosiy talablarni belgilaydi.

Qo’rg’oshin va rux ma’danlar konlarini baholash va qidirish hamda zaxiralarni hisoblash bo’yicha geologiya-qidiruv ishlarining mahalliy va xorijiy amaliyotini hisobga olgan holda, shuningdek, “Qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashorat resurslari tasnifi”ga (DZK, 2022 y.) muvofiq quyidagi o’zgartirishlar va qo’shimchalar kiritildi:

Respublika va xorijiy davlatlarda mis tarkibli konlarining o’rnatilgan morfologik turlari aniqlangan;

konni baholash va qidirish usullariga aniqliklar kiritildi;

geologik zaxiralarni hisoblash bo’yicha talablar aniqlangan;

konlarni qidirish va o’zlashtirish ma’lumotlarini taqqoslash natijalari bo’yicha nomuvofiqliklar aniqlanganda zaxiralarni qayta hisoblash asoslari keltirilgan;

zaxiralarni hisoblashda qabul qilingan usullar aniqlangan;

A₁ va A₂ toifalardagi qo’rg’oshin va rux mavjud bo’lgan ma’danlarning ekspluatatsion zaxiralarini hisoblash “Qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarining tasnifi”ga (DZK, 2022 y.) muvofiq amalga oshirilishi ko’rsatilgan;

“Konlarning (kon uchastkalarining) o’rganilganlik darajasi” va “Zaxiralarni qayta hisoblash va qayta tasdiqlash” kabi yangi bo’limlar joriy etildi.

2. Litiy, rubidiy, seziiy konlariga zaxiralar tasnifini qo’llashga oid yo’riqnomasi.

Tuzuvchilar. Gleyzer L.M., Oxunov A.X., Raxmonova N.B.

Ushbu yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 31-oktyabrda tasdiqlangan "Yer qa'ri to'g'risida"gi 987-son Qonuniga va "Qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarining tasnifi"ga (Davgeolqo'm, 2022-yil) muvofiq, Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi tomonidan 1999-yilda tasdiqlangan "Litiy va seziy konlariga zaxiralar tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma" o'rniga ishlab chiqilgan.

Yo'riqnoma litiy, rubidiy, seziy konlarini qidirish, ularning zaxiralarini hisoblash va ularni sanoat miqyosida o'zlashtirishga tayyorlash darajasiga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilaydi.

Litiy, rubidiy, seziy konlarini baholash va qidirish hamda zaxiralarni hisoblash bo'yicha geologiya-qidiruv ishlarining mahalliy va xorijiy amaliyotini hisobga olgan holda, shuningdek, "Qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashorat resurslari tasnifi"ga (DZK, 2022 y.) muvofiq quyidagi o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi:

Respublika va xorijiy davlatlarda litiy, rubidiy, seziy tarkibli konlarining o'rnatilgan morfologik turlari aniqlangan;

konni baholash va qidirish usullariga aniqliklar kiritildi;

geologik zaxiralarni hisoblash bo'yicha talablar aniqlangan;

konlarni qidirish va o'zlashtirish ma'lumotlarini taqqoslash natijalari bo'yicha nomuvofiqliklar aniqlanganda zaxiralarni qayta hisoblash asoslari keltirilgan;

zaxiralarni hisoblashda qabul qilingan usullar aniqlangan;

A₁ va A₂ toifalardagi litiy, rubidiy, seziy mavjud bo'lgan ma'danlarning ekspluatatsion zaxiralarini hisoblash "Qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarining tasnifi"ga (DZK, 2022 y.) muvofiq amalga oshirilishi ko'rsatilgan;

"Konlarning (kon uchastkalarining) o'rganilganlik darajasi" va "Zaxiralarni qayta hisoblash va qayta tasdiqlash" kabi yangi bo'limlar joriy etildi.

3. Tabiiy ochilmalar va kon lahimlarini dala sharoitida geologik hujjatlashtirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. Tuzuvchilar: Gleyzer L.M., Oxunov A.X., Raxmonova N.B., Abidova N.A.

Ushbu "Tabiiy ochilmalar va kon lahimlarini dala geologik hujjatlashtirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar" (keyingi o'rinlarda - Uslubiy tavsiyalar) O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 31-oktyabrda tasdiqlangan "Yer qa'ri to'g'risida"gi 987-son Qonuniga muvofiq, shuningdek geologiya-qidiruv ishlarini olib borishda dala hujjatlarini yuritishning mahalliy va xorijiy amaliyotini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Uslubiy tavsiyalar maqsadi geologik hujjatlar shakllarini yagona tizimga keltirish, ularning to'liqligi va sifatini ta'minlashdan iborat. Uslubiy tavsiyalar Davlat geologiya qo'mitasi tomonidan 2013-yilda tasdiqlangan "Tabiiy ochilmalar va kon lahimlarini dala geologik hujjatlashtirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar" o'rniga ishlab chiqilgan. Uslubiy tavsiyalarga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi:

Dala hujjatlarining obyektlariga aniqlik kiritildi;

Hujjatlashtirishda zarur materiallar tarkibi keltirilgan: grafik materiallar, chizmalar, kesmalar, fotosuratlar, turli xil o'lchovlar (qalinlik, tushish burchaklari va azimutlari, yoriqlar o'lchamlari va boshqalar), matn qismi (ma'dan tanalari va qamrovchi jinslarning tarkibi va boshqa kuzatiladigan xususiyatlari, ma'danni nazorat qiluvchi omillar), shuningdek, tosh materiallari - namunalar, ularning tavsifi, tanlash joyi;

"Fotogeologik hujjatlashtirish" bo'limi to'ldirildi.

4. Qattiq foydali qazilmalar va sanoat yer osti suvlari uchun qidiruv konditsiyalarning texnik-iqtisodiy asoslash (TIA), materiallar tarkibi, rasmiylashtirilishi va ularni O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Foydali qazilmalar zaxiralari bo‘yicha davlat komissiyasiga taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma. Tuzuvchilar. Gleyzer L.M., Oxunov A.X., Raxmonova N.B.

Ushbu yo‘riqnoma O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 31-oktyabrdagi “Yer qa’ri to‘g‘risida”gi 987-son Qonuniga, “Qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarining tasnifi”ga (DZK, 2022y.), “Yer osti suvlarining ekspluatatsion zaxiralari va prognoz resurslari tasnifi”ga (DKZ, 2006y.) muvofiq, Foydali qazilmalar zaxiralari bo‘yicha davlat komissiyasi tomonidan 2006-yilda tasdiqlangan “Qattiq foydali qazilmalar va sanoat yer osti suvlari uchun qidiruv konditsiyalarning texnik-iqtisodiy asoslash (TIA), materiallar tarkibi, rasmiylashtirilishi va ularni O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Foydali qazilmalar zaxiralari bo‘yicha davlat komissiyasiga taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma” o‘rniga ishlab chiqilgan.

Yo‘riqnoma qattiq foydali qazilmalar va sanoat yer osti suvlari zaxiralarini hisoblash uchun qidiruv konditsiyalarining texnik-iqtisodiy asoslarini (TIA) ishlab chiqish bo‘yicha mahalliy va xorijiy tajribani hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Yo‘riqnomaga quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi:

qidiruv konditsiyalarining texnik-iqtisodiy asoslariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi;

minimal sanoat tarkibini aniqlash usuli haqidagi ma’lumotlar to‘ldirildi;

qidiruv konditsiyalarining texnik-iqtisodiy asoslarini taqdim etish tartibiga aniqliklar kiritildi;

2. O‘zaro fikr almashib, Davlat komissiyasi qaror qiladi:

2.1. Kon-geologiya vazirligining taklifiga rozilik bildirilsin va ishlab chiqilgan me‘yoriy hujjatlar tasdiqlansin;

2.2. Ishlab chiqilgan me‘yoriy hujjatlar 2026-yil 1-yanvardan amalda tatbiq etilsin, hamda yuqorida keltirilgan – amaldagi me‘yoriy hujjatlar 2026-yil 1-yanvardan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

Kotib

Ibragimov A.E.

Pulatov E.G.

Gleyzer L.M.

Istamov F.I.

Oxunov A.X.

Isoqov M.U.

Raxmonova N.B.

Axmedov M.Sh.

Abidova N.A.

Kazantseva Ye.G.